ISSN 2181-922X

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O‘ZBEKISTON:
TIL VA MADANIYAT

Adabiyotshunoslik

2025 Vol. 1 (2)

www.literature.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

ADABIYOTSHUNOSLIK

2025 Vol. 1 (2)

www.literature.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o‘rinbosarlari: Nurboy Jabborov
Bahodir Karimov

Mas’ul kotib: Sohiba Madirimova

Tahrir kengashi

Nusratulla Jumaxo'ja, Iqboloy Adizova, Abdulla Ulug'ov, Dilnavoz Yusupova, Islom Yoqubov, Qo'ldosh Pardayev, Umida Rasulova, Akrom Dehqonov, Olim To'laboyev, Tozagul Matyoqubova, Shermuhammad Amonov, Shahlo Hojiyeva, Orzigul Hamroyeva, Ilyos Ismoilov, Sohiba Umarova, Gulbahor Ashurova, Gulzoda Soatova, Dildora Rahmonova, Zilola Shukurova, Furqat To'xtamurodov, Sarvinoz Rasulova.

Jurnal haqida ma'lumot

“Adabiyotshunoslik” – “O‘zbekiston: til va madaniyat” jurnalining adabiyotshunoslik yo‘nalishidagi seriyasi bo‘lib, yilda to‘rt marta nashr etiladi.

Jurnalning “**Adabiyotshunoslik**” seriyasida o‘zbek va jahon adabiyoti tarixi, xalq og‘zaki ijodi, adabiyot nazariyasi, o‘zbek mumtoz adabiyotining qo‘lyozma manbalari va matnshunoslik muammolari, jadidchilik va jadid adabiyoti, zamonaviy adabiy jarayon, adabiy tanqid hamda qiyosiy adabiyotshunoslik yo‘nalishidagi eng yangi tadqiqotlar e’lon qilinadi. O‘zbek va jahon adabiyotshunosligi erishgan so‘nggi yutuqlari aks etgan ilmiy maqolalarni nashr etishga alohida diqqat qaratiladi. Maqolalarning ilmiy saviyasi va tahliliy quvvati yuqori bo‘lishiga e’tibor beriladi.

“**Adabiyotshunoslik**” seriyasida O‘zbekiston va xorijiy davlatlarning e’tirof etilgan atoqli olimlari, oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilari, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar hamda magistrantlarning ilmiy maqolalari nashr etiladi.

“**Adabiyotshunoslik**” seriyasi 2022-yil yanvar oyidan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

Email: adabiyotshunoslik2022@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz
www.literature.tsuull.uz

MUNDARIJA

MUMTOZ ADABIYOT TARIXI

Dilnavoz Yusupova
Samarqand shahri ikki buyuk siymo talqinida 5

Sohiba Umarova
Sa'diy Xorazmiy devoni nusxalari va janrlar tarkibi 16

Olimjon Abdullayev
Balog'at ilmi rivojida arab sheriyatining o'rni.....27

Muattar Axmedova
O'rta Osiyoda agiografik asarlarning o'rganilishi 47

Asadullojon Aminjonov
Sharq adabiy merosida tafsir ilmining shakllanishi, metodologiyasi va yurtimizda yetishib chiqqan soha yetakchilari 58

Xafiza Abduraimova
Alisher Navoiy g'azaliyotida Xizr va Masih obrazlari talqini 75

Sarvinoz Qurbonova
Nodim Namangoniyning poetik mahorati 88

Dilnavoz Sattorova
Sa'diy lirikasi kiritilgan to'plam-bayozlar tavsifi 102

Firuza Ibragimova
"Devoni Faqiriy Xorazmiy" qo'lyozma devonining dastxat nusxasi ...117

Dilafruz Bozorboyeva
Pahlavonquli Ravnaq hayoti va lirik merosi 130

Mahliyo Rasulova
"Hayrat ul-abror" dostoni hikoyatlaridagi tasavvufiy mazmunning badiiy talqini 141

Rayhon Norqulova
"Yo'qotganlarim va topganlarim" asarida ustozlar yodi 151

Charos Kuvondikova
Furqat ijodining o'rganilishi haqida ba'zi mulohazalar 160

ZAMONAVIY ADABIYOT MUAMMOLARI

Abdulla Ulug'ov
Adabiy qahramon – insonning adabiyotdagi obrazi 168

Sitorabonu Ataullayeva
Abdulla Qahhor va Ketrin Mensfild hikoyalarida ruhiyat va tabiat tasviri 202

Dilnoza Sayfullayeva
“Sariq devning o‘limi” romanidagi obrazlarning biografik asosi 214

Umida Abdullayeva
Expressive Description of London and Market in Dickens’ Novel Oliver Twist 224

ensiklopediya. – B. 752.
Navoiy A. (1998). Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. 14-tom. – T.: Fan. – B. 304.
Navoiy A. (2006). Hayrat ul-abror. – T.: G‘afur G‘ulom. – B. 392.
Navoiy A. (2019). Xamsa. Nasriy bayon. – T.: Navro‘z. – B. 712.
Ojegov S.I. (1978). Slovar russkogo yazika. – Moskva. –B. 560.
Problemы teorii literaturы. (1958). – M.: Nauka. – B. 354.
Sarimsoqov B. (2004). Badiiylik asoslari va mezonlari. – T.: – B. 128.
Slovar inostrannыx slov. (1981). 8-ye. izd., streotip. – M.: Russkiy yazыk. – B. 624.
Tagor R. (1965). Asarlar. Sakkiz tomlik. 8-tom. – T.: Badiiy adabiyot. – B. 360.
O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80 000dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. J. II. – T.: O‘zbekiston ilmiy ensiklopediyasi, 2006. –B. 672.
O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80 000dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. J. V. – T.: O‘zbekiston ilmiy ensiklopediyasi, 2006. – B. 592.
Falsafa: qomusiy lug‘at. (2004). – T.: Sharq. –B. 496.
Fitrat A. (2006). Tanlangan asarlar. J. IV. Darslik, o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar. – T.: Ma’naviyat. – B. 336.
Hotamov N., Sarimsoqov B. (1983). Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. – T.: O‘qituvchi. – B. 376.
Abdulla, U. O. STORIES OF KHAYRIDDIN SULTANOV.\
Улугов, А. (2023). Xayriddin Sulton asarlarida hayot hodisalarining aks ettirilishi. *Узбекистан: язык и культура. Литературоведение.*, *2*(2), 4-22.
Rasulova, S. The Nature of Fantastic Stories.
MADINA, B. (2024). BADIIY ASARLARDAGI MAKTUBLARNING G‘ARBONA VA SHARQONA TARANNUMI RASULOVA SARVINOZ SADATOVNA, Toshkent Davlat Ona tili va adabiyoti Universiteti katta. *TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI*, 559.
Rasulova, S. (2024, December). TO‘RT QAHRAMON VA TO‘RTTA YO‘L. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE* (Vol. 1, No. 12, pp. 172-175).
Nurmamat, G. S. (2024). THE POETRY WORKS IN THE JOURNAL “MAORIF VA O ‘QITUVCHI. *American Journal of Philological Sciences*, *4*(04), 129-134.
Kizi, S. G. N. (2021). Publication of translated works in the magazine" Education and teacher"(based on numbers from 1925–1927). *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *11*(10), 1727-1733.

ISSN 2181-922X 202—213

Abdulla Qahhor va Ketrin Mensfild hikoyalarida ruhiyat va tabiat tasviri

Sitorabonu Ataullayeva[1]

Abstrakt

Ushbu maqola mashhur o‘zbek va ingliz yozuvchilari Abdulla Qahhor va Ketrin Mensfild hikoyalarida obrazlar, peyzaj va interyer qo‘llanilishi va ular orqali tasvirlanayotgan g‘oyalarning ochib berilishiga bag‘ishlangan. Unda, bir nechta hikoyalar asosida, yozuvchilarning obraz yaratish, hikoyalarida peyzaj, interyer va motivlardan foydalanish, hamda so‘z qo‘llash mahorati yoritilgan. Bundan tashqari o‘sha davr adabiyotida ayol xarakterini, u hayotda duch kelayotgan muammolarni ko‘rsatib, uni oldini olish va kurashishga da’vat etish yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *Hikoya, peyzaj, interyer, motiv, obraz, uslub, syujet, voqealar rivoji, ramziylik, personaj, an’ana.*

Adabiyotda hikoya janri haqida so‘z yuritar ekanmiz, ular bilan tasviriy san’at o‘rtasida uyg‘unlikni ko‘ramiz. Ikkalasida ham tabiat tasviri chuqur falsafiy ma’nolarni ifodalashda, muhim unsur vazifasini bajaradi. U ijodkorlarning g‘oyalariga, tafakkur sarhadlariga chuqur nazar tashlash imkonini beradi. Mahoratli yozuvchilar turli tasviriy vositalardan ustalik bilan foydalanib, obraz va xarakterlarning ruhiyat manzaralarini yorqin ochishga, o‘quvchilarga aytmoqchi bo‘lgan fikr-g‘oyalari mohiyatini aniqroq yetkazishga muyassar bo’ladi. Albatta, har bir san’at turining ijodkori o‘z asari uchun ma’lum obrazni tanlab oladi, ayniqsa, badiiy adabiyotda “obraz” tushunchasi muhim o‘rin tutadi. Chunki, yozuvchilar o‘z asarlarida har xil obrazlar orqali ma’lum hodisani yoki jamiyatda uchraydigan biron-bir holatni o‘quvchilarga yetkazib bermoqchi bo‘ladilar va bu jarayonda ular shubhasiz interyer va peyzajdan ham mohirlik bilan foydalanadilar. Ushbu vositalar ham ma’lum ma’noda asar qahramonlarining ichki kechinmalarini, ruhiy holatlarini ko‘rsatib berishda muhim o‘rin tutadi. Bundan

[1] *Ataullayeva Sitorabonu Nusratullo qizi* – Ingliz tili o‘qituvchisi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
E-mail: sitorabonuataullayeva@gmail.com
ORCID ID: 0000-0002-8199-9615
Iqtibos uchun: Ataullayeva, S. “Abdulla Qahhor va Ketrin Mensfild hikoyalarida ruhiyat va tabiat tasviri”. *O‘zbekiston: til va madaniyat*. 2025, 1 (2): 202-213.

tashqari adabiyotshunos olim D.Quronovning fikriga koʻra interyer tavsif termini tarkibiga kiradi va quyidagicha izohlanadi: “Tavsif – kompozitsiyaning uzviy qismi, asar voqeligiga kiritilayotgan narsa – hodisa, joy, portret, interyer, eksteryer va shu kabilar tasviri”. [Quronov D. Adabiyotshunoslik lug’ati. 2010, 120]. Yana bir olim Professor Abdulla Ulugʻov ham oʻzining “Adabiyotshunoslik nazariyasi” kitobida interyer haqida qisqa fikrni keltirgan: “Uy, oʻtov, xona singari yopiq joylar interyerdir. Badiiy asarlarda ana shunday yopiq makonlarning koʻrinishi, undagi narsalarning turishi, joylashishi ham tasvirlanadi” [Ulugʻov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. 2017, 70].

Adabiyotda “obraz” tushunchasi, soʻz san’ati, peyzaj va interyerdan mohirlik bilan foydalangan yozuvchilar koʻpchilikni tashkil etadi. Ana shunday tasviriy vositalardan mahorat bilan foydalana olgan ijodkorlardan, mashhur ingliz yozuvchisi, hikoyanavisi Yangi Zelandiyalik Ketrin Mensfildni alohida ta’kidlash joiz. Ketrin Mensfild (asl ismi Ketlin Bichem) Yangi Zelandiyaning eng mashhur yozuvchilaridan biri boʻlib, 1888-yil 14-oktabrda Yangi Zelandiyaning Vellington shahrida dunyoga kelgan. Oʻzi Yangi Zelandiyalik boʻlsa-da, umri davomida Germaniya, Fransiya va boshqa bir qator davlatlarda yashagan. Hikoyalarini oʻsha yerlardagi ijtimoiy hayotdan kelib chiqqan holda, mahalliy aholining turmush tarzini oʻrganib yozgan. Shuni ta’kidlab oʻtish joizki, uning hikoyalarida, ayniqsa, ayol taqdiri, qismati muammolari muhim oʻrin tutadi. Hikoyalaridagi, deyarli, barcha bosh qahramonlar har xil xarakterdagi ayollardir. Uning asarlaridagi mazmun va gʻoyalar ayollarning jamiyatda tutgan oʻrni, ularning haq-huquqlarini himoya qilish yoki haq-huquqlari poymol etilgan holatlarni ommaga oshkor etish va shunday holatlarning oldini olishga qaratilgan deb aytishimiz mumkin. Ketrin Mensfild 1923-yil 9-yanvarda ogʻir kasalligi tufayli olamdan oʻtadi. Afsuski, uning hikoyalari va she’rlarining koʻp qismi u hayotligida chop etilmagan. Bu ishni uning oʻlimidan soʻng turmush oʻrtogʻi Jon Marri oʻz zimmasiga oladi. Uning yordamida Mensfildning ikkita hikoyalar toʻplami “Kabutarlar uyasi” (The Dove’s Nest, 1923) va “Bolalarga xoslik” (Something Childish,1924) hamda “Aloe” (The Aloe) nomli she’ri, “Romanlar va romanchilar” (Novels and Novelists) nomli tanqidiy maqolalardan iborat boʻlgan toʻplami, avval nashr etilmagan bir qancha xatlari va kundaliklari chop etilib, ommaga taqdim etiladi.

Mensfildning adiba sifatida voqealarni tasvirlash, fikr-gʻoyalarini oʻquvchiga yetkazish uslubi nihoyatda oʻziga xos. Uning

hikoyalarida chexovona ifoda tamoyilini ko‘ramiz. Asarlaridagi har bir badiiy unsur o‘zining ichki nutqiga ega. Hatto sukunatning ham ovozi eshitiladi. Ayniqsa, tabiat va interyer tasviri muhim vazifalarni bajaradi. Ular hikoyalardagi obraz, personaj va qahramonlar bilan teppa-teng harakatlanadi. Ularning o‘y-fikrlariga hamohang tarzda syujet oralab kezib yuradi.

Ketrin Mensfild ko’pgina jahonga mashhur qisqa hikoyalarni yaratar ekan, ularda voqealar rivojiga nisbatan tasviriylikka, ya’ni peyzaj va interyerga alohida urg‘u beradi. U o‘z asarlarida atrof-muhit, tabiat tasviri, hattoki qahramonlar o‘tirgan xonalarning har bir element va detallarigacha ta’riflaydi. O‘z hikoyalarida asar qahramonlarining ichki dunyosi, o‘y-fikrlarini batafsil yoritib beradi.

Peyzaj (fr. paysage – joy, yurt) – adabiy asarda yaratiluvchi badiiy voqelikning muhim komponenti, voqealar kechuvchi ochiq makon (yopiq makon – interyer) tasviri. An’anaga ko‘ra, peyzaj deyilganda tabiat tasviri tushuniladi, lekin bu xil tushunish bir-muncha torroq. Chunki peyzaj nafaqat tabiatni (agar bu so‘z ostida birlamchi tabiat tushunilsa), balki u bilan birga inson tomonidan yaratilgan narsalar tasvirini ham ko‘zda tutadi. Shu ma’noda, mas., biron-bir xiyobon yoki shahar ko‘chasining tasviri ham Peyzaj, holbuki, ular tabiat tasviri emas, joy tasviridir. Yozuvchi peyzajni voqealar rivojini to'xtatib qo‘ygancha mufassal tasvirlashi (statik peyzaj) yoki unga taalluqli detallarni voqealar davomida berib borishi (dinamik peyzaj) mumkin [D. Quronov va b. Adabiyotshunoslik lug’ati, 2013, 221]. Shubha yo‘qki, peyzaj badiiy asarlarni yanada jilolantiradi va shu bilan birga ular orqali asar qahramonlariga tegishli jihatlarni ko‘chma ma’noda ifodalab berishga xizmat qiladi.

Shu o‘rinda Mensfildning “Rozabelning charchog’i” hikoyasini misol qilib olishni lozim topdik. Ushbu hikoya boshidan to oxirigacha bosh qahramon Rozabelning o‘y-kechinmalariga asoslangan. Uning tabiati obrazning o‘z xayollari, orzu-armonlari vositasida yoritib beriladi. Ammo yozuvchi atrof-muhit, tabiat manzarasi, ya’ni peyzaj, asar qahramoni yashaydigan uy va hatto xonasidagi har bir jihoz, detallarigacha nazardan chetda qoldirmaydi: ”Rozabel kamin yoqilgan xonasiga kirganida, uni bir uyum xatlar kutardi, u esa ularga hatto e’tibor ham bermaydi. Xatlarning barchasida uni har xil taklifnomalar, jumladan, operaga, kechki ovqatlarga, kemada sayohat qilishga, mashinada sayr qilishga takliflar kutar edi. Yotoqxonasida esa uning kumushga burkangan hashamatli liboslari yoyilib yotardi. Rozabel o‘zini balldagi boshqa barcha ayollardan go‘zal va jozibali deb hisoblardi. Balldagi erkaklar uning chiroyiga

maftun bo‘lishardi. Xorijdan kelgan shahzoda esa ushbu “ingliz mo’jizasi” bilan tanishishni intizor bo‘lib kutar edi“ [https://www.katherinemansfieldsociety.org.].

Ushbu parchadan ko‘rinib turibdiki, bu tasvirlar Rozabelning o‘y-xayollaridir. Uning o‘zi nochor hayot kechiruvchi, soddagina, hali turmushga chiqmagan qiz. Do‘kon sotuvchisi bo‘lib ishlaydi. Hattoki, to‘yib ovqatlanishga ham sharoiti bo‘lmaydi. U kundalik hayotini har xil shirin orzular bilan o‘tkazishni yoqtiradi. Ketrin Mensfild Rozabelning xayollarini shunday mohirlik bilan tasvirlaydiki, go‘yo bular xayol emas, balki hozirgina sodir bo‘layotgan hayotiy voqealar kabi taassurot uyg‘otadi. Bu esa Ketrin Mensfildning badiiy tasvirlash uslubi va mahoratining noyob va o‘ziga xosligidan dalolat beradi. Jumladan, quyidagi parchada, badavlat xonim koshonasidagi kaminda olov yongan, pardalar tushirilgan. Uni bir uyum maktublar kutmoqda: operaga, tushlikka, ballarga taklifnomalar; hafta oxirida kemada sayohat, avtomobil poygasiga da’vatnomalar qalashib, yoyilib yotgani mahorat bilan tasvirlangan. Shubhasiz, o‘quvchining ko‘z o‘ngida xonaning tasviri xuddi chizib qo‘yilgan interyer kabi gavdalanadi.

Ketrin Mensfildning yana bir “Yosh murabbiya” deb nomlangan hikoyasidagi ushbu parcha ham asar badiiyatida muhim o‘ringa ega: “Qattiq hushtak ovozi jarangladi. Porter zafarli nigoh bilan zinapoyadan sakrab tushdi va poyezd harakatlana boshladi. Qizning ko‘zlari yoshga to‘ldi, shu payt cholning sharfini va qalpoqchasini yechayotganini zo‘rg‘a fahmladi. Buncha qari bo‘lmasa. Ha, u kamida to‘qson yoshda. Mo‘ylovi butunlay oppoq, ko‘zlari kichkina, ko‘k rangda, tilla tusdagi katta ko‘zoynaklar ortida ajin bosgan yonoqlar ...” [https://www.katherinemansfieldsociety.org.]. Mazkur parchada ham Ketrin Mensfild uslubining o‘ziga xos xususiyati yaqqol namoyon bo‘lgan. Mensfild qahramonlar xarakterini ochishda ularning o‘zlarining xayolot olamidan foydalanadi. Adabiyotda obrazlar tabiati, odatda, ularning harakatlari, gap-so‘zlari vositasida ochiladi. Ammo bu borada K.Mensfild o‘zgacha yo‘ldan boradi. Uning o‘ziga xos uslubi bor. U qahramon portretini, tabiatini o‘z tafakkur olami orqali yoritib beradi. Yuqoridagi parchadan ham ko‘rinib turibdiki, Mensfild o‘z qahramonining fikrlari orqali asaridagi boshqa bir obrazning qiyofasini yorqin tasvirlab beradi. Qizning xayolidan o‘tkazayotgan fikrlariga ko‘ra, tasavvurimizda chol juda qari, yuzlari ajin bosib ketgan yoqimsiz odam sifatida namoyon bo‘ladi. Bu ifodaning o‘z navbatida, asardagi voqealarning noxush tus olishiga ishora berayotganini sezish qiyin emas. Cholning

boshidagi qalpog‘i va sharfini yechishiga alohida e’tibor qaratilishida ham o‘ziga xos mantiq bor. Ammo hikoya davomida chol qiz bilan muloqotga kirishib, uning ko‘nglini oladi va makkorlik bilan ishonchini qozonishga erishadi. Quyida cholning qiz haqidagi o‘y-xayollari uning ma’naviyati va dunyoqarashidan o‘quvchiga xabar beradi: “Chol muloyim nigohi bilan qizga qarab, uning kichkina, ochiq qo‘lini, katta sahifalarni varaqlashini, ayniqsa, qiyin so‘zlarga duch kelganda qimirlagan mayin lablarini, sarg‘ish sochlarining tovlanishini baholadi. Shu o‘rinda chol qizning bir necha mevalarga, mushuklarga va shampan vinosiga xayollarni yetaklovchi sochlar egasi bo‘lishini fojia deb hisobladi. Ehtimoldan xoli emaski, chol qizdan ko‘zlarini uzmay, uning nafis go‘zalligiga, hatto, egnidagi qora odmi ko‘ylagi ham putur yetkaza olmasligi haqida o‘ylayotgandi” [https://www.katherinemansfieldsociety.org]

Berilgan parchadan ko‘rinib turibdiki, chol yoshi ulug‘ inson bo‘lishiga qaramay, yoshgina, nevarasi tengi qizni boshdan oyoq ko‘z uzmay, sinchiklab kuzatib, unga hirs ko‘zlari bilan nazar tashlayapti. Hikoyadagi mana shu tasvirlardan ham asar qanday fojiaviy yakun topishini taxmin qilish mumkin. Xullas, yozuvchi hikoyaning boshdan oxirigacha turli tasviriy unsurlar yordamida, asar davomida axloq me’yorlari va odamiylik mezonlariga putur yetishi mumkinligiga ishora etayotganini anglaymiz. Haqiqatan ham, hikoya cholning yoshgina, bolalarcha beg’ubor qizning nomusiga tajovuz qilmoqchi bo‘lishi bilan yakunlanadi. Yozuvchi mazkur syujet orqali o‘quvchilarga hayotning achchiq haqiqatini, ayovsiz va beshafqat ekanligini, ba’zan insonning tashqi hamda ichki qiyofasi mos kelmasligi mumkinligini ayon etadi.

Mensfild ijodida, ko‘pincha, hayotda yuz berayotgan real voqealarni tasvirlashni ma’qul ko’radi. Ular orqali insoniyatga ko‘zgu tutishni maqsad qiladi. Ularni o‘zlariga tanitishni, jamiyatdagi chirkinliklar, axloqiy buzilishlarga omma e’tiborini tortib, fosh etishga va ijtimoiy hayotdagi ma’naviyatsizliklarni yo‘qotishga tomon safar boshlashga da’vat etishni maqsad qiladi.

Ma’lumki, K.Mensfild va Abdulla Qahhor hikoyanavisligi A.P.Chexov ijodiy maktabidan bahra olib taraqqiy etgan. Shu sababli ham, ularning umumiy va yaqin xususiyatlari ko‘p. Xususan, hikoyalardagi ayol obrazi, ularning xarakterini yoritishdagi badiiy usullar nuqtai nazaridan kuzatsak, ko‘plab mushtarakliklarning guvohi bo‘lamiz. Ikkala yozuvchida ham ayollarning ichki dunyosi, ijtimoiy va axloqiy muammolar, haq-huquqlarining poymol etilishi kabi masalalar qalamga olingan. Jumladan, A.Qahhor ham ko‘pgina

hikoyalarida ayol obrazini yoritib berishga harakat qilgan. Buning sababini ayollarning jamiyatdagi mavqelarini yoritish, huquqlarini anglash uchun kurashish, ijtimoiy hayotda faollashish lozimligini uqtirish maqsadi bilan bog'lash mumkin. Hikoyanavis o'z asarlari bilan ayollarning qanchalik zehnli, irodali, matonatli ekanliklarini namoyon etgan. Masalan, yozuvchining "Nurli cho'qqilar" hikoyasi bosh qahramonlari egizak opa-singillar Fotima va Zuhra. Ta'kidlab o'tishimiz joizki, yozuvchi hikoyani peyzajdan foydalanib, juda chiroyli nomlagan. Chunki sarlavhani o'qishimiz bilan ko'z oldimizga tepasida quyosh porlab turgan tog'ning nurli cho'qqilari manzarasi keladi. Biz bunga, bemalol, go'zal tabiat manzarasini ifodalovchi tasviriy san'at namunasi deb qarashimiz mumkin. Hikoya "Nurli cho'qqilar" deb nomlansa-da, buning ortida ko'chma ma'no ham bor. Ya'ni hikoya qahramoni o'z xayollarida porloq kelajak (Nurli cho'qqilar) sari intiladi. Ammo bularning barchasi sarob bo'lib chiqadi. Buni Zuhra uydan qochib ketganda, ota-onasiga yozgan xatidan ham bilsak bo'ladi:

"Turmush o'rtog'im bilan ko'nglimizning amrini bajarib, baxtiyor oilalar safidan mustahkam o'rin egalladik va baxtli turmush o'chog'ida oqib, kelajakning nurli cho'qqilari tomon bormoqdamiz" [Abdulla Qahhor. Anor. 2012, 121]. Xatdan berilgan parchadan ma'lumki, qiz katta orzular bilan kelajak sari qadam tashlaydi. Lekin asar yakunida turmush o'rtog'i uni tashlab ketadi va natijada, barcha orzu-umidlari puchga chiqib, kichkina qizalog'i bilan baxtsiz holda yolg'iz qoladi. Bundan tashqari, ushbu hikoyasi bilan Abdulla Qahhor o'zbek oilalarida uchrashi mumkin bo'lgan ayrim holatlarni ham ko'rsatib bergan. Masalan, hikoyada bir farzandni ikkinchisidan ustun qo'yish holatini uchratishimiz mumkin: "Zuhra lola tergani boraman desa, bitta o'zini yuboraverdingmi, birga borsang oyog'ingga kuydirgi chiqarmidi; muncha noshud-notavon, muncha ham anqov-lakalov bo'lmasang!... Kampir bunaqa gaplarni alam ustidagina emas, umuman kuyib aytar, chunki sho'x va shaddod Zuhraga qaraganda Fotima bo'shtobroq, sho'xlik husnning pardozi bo'lsa kerak, ikkovi bir olmaning ikki pallasi bo'lsa ham, Zuhraning oldida uning istarasi so'nikroq ko'rinar edi" [Abdulla Qahhor. Anor. 2012, 120]. Berilgan parchadan ko'rinib turibdiki, ona Zuhrani Fotimadan afzal ko'radi va turli noxush gaplar bilan kamsitib, ularni solishtiradi. Hattoki, bu gaplar farzandiga qanday ta'sir qilishi, uning ko'nglini og'ritib qo'yishi mumkinligi haqida o'ylab ham ko'rmaydi. Bor alamini Fotimadan olishga odatlanib qolgan. Aslida, uydan qochib ketgan Zuhra aybdor bo'lsa ham, Fotimani urushadi, uni

aybdorga chiqaradi. Asardan yana bir parchani oladigan bo‘lsak: “Buning ustiga Zuhra nihoyatda ko‘zga yaqin: bir qaragan kishi, ko‘zi xira tortib, yana qaragisi kelar, xususan, xonatlas ko‘ylak kiyib sochini “laylak uya” qilganida maqtoviga “chiroyli” degan so‘z goh kamlik, goh eskilik qilib qolardi” [Abdulla Qahhor. Anor. 2012, 120]. Yuqoridagi parchada hikoya qahramoni bo‘lmish Zuhraning qanchalik go‘zalligi yozuvchi tomonidan ta’riflanadi. Abdulla Qahhorning mahorati shundaki, u tasvirlash jarayonida turli xil iboralarni, maqollarni qo‘llaydi hamda qisqa va lo‘nda ta’rif beradi. Masalan, yuqorida berilgan parchada “ko‘zi xira tortib” degan ibora qo‘llanilgan, ya’ni qizning go‘zalligidan odamning ko‘zi qamashib ketadi degan ma’no ifodalangan. Abdulla Qahhor uslubining mana shu jihatini Ketrin Mensfildnikidan farqli deb olsak bo‘ladi. Chunki Ketrin Mensfild o‘zining hikoyalarida obrazlarni, ularning o‘y-kechinmalarini, asardagi voqea va holatlarni qahramonlarning o‘z nutqi orqali tasvirlashga alohida urg‘u beradi. Bularning barchasini uzoq ta’riflaydi, har bir mayda elementigacha e’tibor qaratadi. Abdulla Qahhor esa aksincha, ta’riflarni qisqa qilib, diqqatini ko‘proq voqealar rivojiga qaratadi.

Yozuvchining biz tahlil qilmoqchi bo‘lgan yana bir hikoyasi “So‘ngan Vulqon” deb nomlanadi. Hikoya nomi juda noodatiy bo‘lgani uchun ham o‘quvchilarni qiziqtiradi. Uning ostida ko‘chma ma’no yotadi. Ya’ni keksa yoshdagi rahbar odamning lavozimdan tushib qolishi holati, pastroq lavozimlarga tayinlangandagi vaziyati ko‘rsatiladi va go‘yoki so‘nib qolgan vulqonga qiyoslanadi. Abdulla Qahhor ushbu hikoyasining sarlavhasida ham peyzajdan foydalangan, sarlavhani o‘qish bilan o‘quvchining ko‘z oldiga so‘ngan vulqon tasviri keladi. Yozuvchi ushbu tasviriy ifodadan hikoya davomida ham foydalangan: “Suhbatda nima gaplar bo‘lganini Shermat aka menga aytmadi, lekin jon-jonidan o‘tib ketgan bir narsani aytdi: uni “so‘ngan vulqon” deb atashibdi“ [Abdulla Qahhor. Anor. 2012, 137]. Hikoya muallifi ushbu gap orqali Shermat akani qanchalik kuchsiz, ishga yaroqsiz bo‘lib qolganini o‘zgalar fikri orqali namoyon qiladi. Bundan tashqari, u hikoyada interyer tasviriga ham alohida e’tibor beradi. Ya’ni binoning ichki qismi, biron bir xonani ta’riflash orqali, asar qahramonining ruhiy holatini, kechinmalarini, o‘y-xayollarini, asardagi voqealarning rivojlanish tizimini ham yoritib beradi: “Kabinetni ko‘rib Shermat akagina emas, men ham hang-mang bo‘lib qoldim: yashil movut qoplangan va oyoqlari shertamg‘a eski stol, besh-oltita har xil kursi, bitta telefon, u ham devorga qoqilgan. Shermat akaning qovoqlari qizarib, tomog‘i

lipilladi, aftidan, juda ham xo‘rligi kelib ketdi” [Abdulla Qahhor. Anor. 2012, 138].

Yuqoridagi parchadan ko‘rinib turibdiki, xonaning interyerini, undagi jihozlarning eskiligini tasvirlash orqali yozuvchi qahramonning yuqori rahbarlik lavozimidan keyin qanchalik xor ahvolga tushib qolganiga ishora qilayotgandek bo‘ladi. Bu bilan u boylik va mansab hech qachon odamga vafo qilmasligini, abadiy bo‘lmasligini o‘quvchiga uqtirmoqchi bo‘ladi.

Yozuvchining yana bir xalq ichida juda mashhur hikoyasi “Dahshat” deb nomlanadi. Bu hikoyani bemalol mukammal yozilgan deb ayta olamiz. Chunki Abdulla Qahhor hikoyalari kamdan-kam hollarda tabiat tasviri, ya’ni peyzaj bilan boshlanadi. Ko‘pincha, ularda biror keskin hodisa bayoni orqali syujet ichiga kiriladi. Ammo “Dahshat”da ijodkor ma’lum ma’noda o‘zining hikoyanavislik uslubidan biroz chekinadi. Asar ikki haftadan beri ko‘z ochirmayotgan kuzak shamoli tasviri bilan boshlanadi. Hikoyada tabiat tasviri juda muhim vazifani bajargan. Hatto asardagi obrazlar ham yozuvchi maqsadini ifodalashda bu qadar muhim maqomda turmagandek. Xususan, hikoyadagi shamol obrazi chuqur ma’noga ega. U syujetning boshidan oxirigacha ishtirok etadi. Turli bosqichlarda turli maqsadlarda qo‘llaniladi va turli ma’nolarga ega. Adib asarida shamol to‘laqonli obraz darajasiga ko‘tariladi. U xuddi insondek nafas oladi, yashaydi. Jarayonlarga munosabat bildiradi, uf tortadi, xo‘rsinadi, to‘lg‘onadi: “Yaqin ikki haftadan beri ko‘z ochirmayotgan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida chiyillaydi, g‘uvillaydi; tomlarda vishillaydi, yopiq eshik va darchalarga bosh urib uf tortadi” [Abdulla Qahhor. Muhabbat. 2014, 6].

Bilamizki, shamol hamma narsani ag‘dar-to‘ntar qilib ostin-ustun qilish xususiyatiga ega. Asar shunday kuchga ega shamolning kezinib, qafaslarni parchinlab, o‘ziga yo‘l izlash jarayonini tasvirlash bilan boshlanadi. Uning yaydoq-yalang‘och daraxt shoxlaridan hayot nishonasini topolmay, yanada balandroqqa – tomlarga o‘rlashi, undan-da hafsalasi pir bo‘lib, yopiq eshik va darchalarga bosh urib, yo‘l topa olmay uf tortishida chuqur ma’no bor. U o‘z erkini izlab, to‘siqlarni yengish, yopiq eshiklarni ochish maqsadida kezinadi. Hikoyadagi ikkinchi tasvirda shamol yanada vahimaliroq, shiddatliroq, “o‘lim changaliga tushgan mushukdek” jon holatda o‘zini to‘rt tarafga uradi. Shu o‘rinda Qahhor mahoratini yana bir bor namoyish eta oladi. Shamolni och bo‘riga, o‘lim changaliga tushgan mushukka qiyoslab tasvirlaydiki, vaziyatni bundan-da tiniqroq ifodalashning iloji yo‘q: “Shamol goh och bo‘riday uvillar, goh o‘lim

changaliga tushgan mushukday pixillar, vag‘illar, atrofda hech narsa-hech narsa ko‘rinmas edi” [Abdulla Qahhor. Muhabbat. 2014, 15].

Shamolning navbatdagi tasvirida, ma’lum ma’noda, Unsin shamol bilan kurashib, o‘z maqsadi sari intiladi. Parchinlab tashlagudek qudratga ega to‘lqin uni tentiratar, surib tashlar edi. Ammo paranji chimmatini olib, zohiran bo‘lsa-da hurlikka chiqqach, olg‘a intilishi yengilroq bo‘ladi: “Pishqirayotgan shamol har xuruj qilganida Unsinni tentiratar, talay joyga surib tashlar edi. Unsin paranji-chimmatini yumaloqlab qo‘liga olganidan keyin yo‘l yurish osonroq bo‘ldi” [Abdulla Qahhor. Muhabbat. 2014, 15]. Unsinning yo‘liga to‘siq bo‘lgan shamol asarda jamiyatning, chirkin muhitning ramzi sifatida qo‘llaniladi. U yerparchin qilib yuborish qudratiga ega. Ammo bosh qahramonning o‘z erki uchun dadil, jasorat bilan intilishi unga madad beradi. Hammaning ko‘ngliga dahshat soluvchi qo‘rquv uni yo‘ldan qaytara olmaydi. U dastlabki to‘siq chimmat va paranjini olib, yana-da yengilroq, dadilroq olg‘a intiladi. Asar boshida keltirilgan shamolning birinchi tasviri hikoya oxirida yana aynan takrorlanadi: “Shom qorong‘usida uning jasadini qizil ko‘rpaga o‘rab aravaga solishdi. Shamol hamon guvillar, yaydoq daraxtlarning shoxida chiyillar, g‘uvillar edi” [Abdulla Qahhor. Muhabbat. 2014, 15]. Unsin olamdan o‘tdi. Ammo shamolning g‘uvillashi davom etmoqda. U mudroqlikdan uyg‘onish lozimligini ta’kidlayotgandek edi. Xalq orasida yalang’och daraxtga bexosiyatlik ramzi sifatida qaraladi. Bu badiiy ashyoning qo‘llanilishi ham jamiyatdagi erksizliklarga qarshi isyon, unsinlar taqdiridan ogohlantirish, ularga e’tiborni jalb etish ma’nosiga ega.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, asardagi obrazlar, peyzaj va interyer yozuvchining maqsad va g‘oyalarini o‘quvchiga yetkazib berishda muhim o‘rin tutadi. Ularning ayrimlari asarni boyitish, jilolantirish uchun ishlatilsa, ayrimlari ko‘chma ma’noda qandaydir g‘oyalarni ifodalash uchun qo‘llaniladi va ularning ortida qandaydir ma’no yashiringan bo‘ladi. Albatta, maqolamiz davomida misol qilib keltirilgan ikkala yozuvchining asarlarida peyzaj va interyerdan mohirlik bilan foydalanilgan.

Bundan tashqari, Abdulla Qahhor va Ketrin Mensfild rus yozuvchisi Anton Pavlovich Chexovning ijod maktabidan ko‘p narsalarni o‘rganishgan va uni o‘zlariga ustoz deb bilishgan. Shu sababdan ham ularning asarlarida bir qancha o‘xshash jihatlarni uchratishimiz mumkin. Ammo o‘z navbatida, ularning har biri o‘z uslubiga ham ega. Maqolamiz davomida keltirib o‘tganimizdek, Ketrin Mensfild hikoyalarida peyzaj va interyer muhim o‘rin

tutadi va u asarlaridagi mayda detallargacha tasvirlashni afzal ko‘radi va shunga urg‘u beradi. Abdulla Qahhor esa aksincha, o‘z hikoyalarida peyzaj va interyerdan foydalanish bilan bir qatorda, ta’rif va tavsiflarni qisqaroq qiladi va ko‘proq ibora va maqollardan foydalanadi. Ko‘rinadiki, har ikkala yozuvchi ham hikoyalarini mahorat bilan yozishadi va o‘quvchiga o‘zlari ko‘zda tutgan maqsad va g‘oyalarini yetkazib bera olishadi. Shu sababdan ham, ular yozgan hikoyalar haligacha dolzarbligini va badiiy go‘zal tarovatini yo‘qotmagan. Adabiyot ixlosmandlari tomonidan sevib o‘qiladi.

Adabiyotlar

Қуронов Д. ва бошқалар. (2010). Адабиётшунослик луғати. –Т.: Akademnashr. – Б. 406.

Улуғов А. (2017). Адабиётшунослик назарияси. –Т.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – Б. 310.

Абдулла Қаҳҳор. (2012). Анор. –Т.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.– Б. 258.

Ulug’ov, A. (2021). Jahon adabiyoti. *Turkiy xalqlar adabiyoti)//Darslik. –Toshkent*.

Ulug‘ov, A. (2000). Adabiyotshunoslikka kirish. *Toshkent. Universitet*.

Абдулла Қаҳҳор. (2014). Муҳаббат. –Т.: Янги аср авлоди. – Б. 445.

Ataullayeva Sitorabonu. (2024). A Comparative Analysis of Short Story Traditions in Uzbek and English Literature: Cultural, Structural, and Thematic Differences. International Journal of Formal Education, 3(12), 37–42. Retrieved from http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/4034

Ataullayeva S. (2024). THE STORY AS A GENRE OF LITERATURE. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 4(6), 14–17. извлечено от https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/33062

Adizova, I. (2025). ADABIY TA’SIR VA BADIIY BARKAMOLLIK: NAVOIY VA HUSAYNIY. *Hamkor konferensiyalar*, *1*(11), 175-182.

Istamovna, I. A. (2024). THE INFLUENCE OF LUTFIY ON UVAYSI'S CREATIVE DEVELOPMENT. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, *4*(6-1), 48-51.

https://www.katherinemansfieldsociety.org/archive/www.katherinemansfieldsociety.org/assets/KM-Stories/THE-TIREDNESS-OF-ROSABELL1908.pdf

https://www.katherinemansfieldsociety.org/archive/www.katherinemansfieldsociety.org/assets/KM-Stories/THE-LITTLE-GOVERNESS1915.pdf